

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

KOMIL XORAZMIY VA AHMAD TABIBIYNING MA’RIFATPARVARLIK FAOLIYATI XUSUSIDA BA’ZI MULOHAZALAR

Guliston Abdullayeva Sultanovna,

Ranch texnologiya universiteti, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm adabiy muhitidagi yangicha ma’rifatparvarlik harakati, uning yetakchi vakillari Komil Xorazmiy va Ahmad Tabibiylarning taraqqiyparvarlik faoliyati xususida muxtasar fikr yuritiladi.

Kalit soʻzlar: Komil, Tabibiy, ilm-ma’rifat, ta’lim, matbaa, musiqa, nota, yangi usul maktablari, tazkira, taraqqiyparvarlik, tibbiyot.

Xorazmdagi yangicha ma’rifatparvarlik harakatining yana bir namoyandasi Komil Xorazmiydir (1825-1899). U shoir, tarjimon, xattot, musiqashunos, davlat arbobi sifatida bu harakatning rivojida asosiy vazifalardan birini bajardi. Komil madrasa ta’limini olgan. 1854-yildan Muhammad Aminxon saroyida xattotlik qilgan. 1856-yildan mirzaboshilik lavozimida ish boshlaydi. Tabiatan zakiiy, ilmga ragʻbati kuchli, taraqqiyparvar boʻlgan Komil Xorazmiyning uzoqni koʻra olishi, yurt taqdiri uchun jonbozlik koʻrsatishi 1873-yilda yaqqol koʻzga tashlanadi. Zero u iste’dodli shoir sifatida tanilgan, donishmand ijodkor boʻlib shakllangan, bir qancha asarlarni tarjima qilib, ulardan ruhiy quvvat olgan shaxsga aylangan edi. 1873-yilda Chor Rossiyasi bosqini davrida Xiva xonligi saroyidagi amaldorlar bosqinchilarga munosabatda ikki guruhga ajralgan edilar. Matmurod devonbegi bosqinchiligidagi birinchi guruh kuchlar nisbatini inobatga olmay, oxirigacha kurashish yoʻlini tutgan edilar. Komil Xorazmiy, Feruzning maslahatchisi Said Amirul Umar va uning maslakdoshlari xonlikning imkoniyatlarini hisobga olib, qadim meʼmoriy obidalarni betalofat saqlab qolish yoʻlidan borib, murosa-madora qilishni yoqlaydilar. Bu jarayonda ham Komil Xorazmiy oqillik bilan yurtni ancha talofatlardan saqlab qoladi. Uning keyingi siyosiy va ijtimoiy faoliyati ham yurtparvarlikka, ma’rifatparvarlikka qaratiladi.

Komil 1873-yilda devonbegilik lavozimini egallaydi. U bu nufuzli vazifada ham bor eʼtiborini xonlikni rivojlantirish ishiga hissa qoʻshishga bagʻishlaydi. 1875-yilda xonlikning delegatsiya rahbari boʻlib Sankt-Peterburgda safarda boʻladi. Rossiya davlati kansleri Gorchakov, harbiy ministr general-adyutant Milyutin, tashqi ishlar ministri vazifasini bajaruvchi maxfiy maslahatchi P.N.Stremouxovlar bilan uchrashadi. Xonlikdagi iqtisodiy-ijtimoiy ahvolni yaxshilash borasida muzokaralar oʻtkazadi.

Komil 1883-yilda Muhammad Rahimxon Feruz rahbarligida Moskva, Sankt-Peterburg shaharlarida safarda boʻladi. Shuni alohida taʼkidlash oʻrinliki, Komil

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Rossiyada o‘z natijalarini bergan Yevropa ilm-fani va madaniyatidan ta’sirlanadi. Ana shu tarzdagi ilm-fan, madaniyat yutuqlarini ona yurtida ko‘rishni istaydi. Uning 1891-yilgi Toshkent safari ham hayotida juda katta o‘rin egallaydi. Ayniqsa, uning “Turkiston viloyatining gazetisi” muharriri, Erlar gimnaziyasi direktori N.Ostromov bilan uchrashuvi hayotida o‘chmas iz qoldiradi. Uning taraqqiyparvarlik, yurtparvarlik, ma’rifatparvarlik tuyg‘ularini olovlantiradi, yangicha ko‘rinish olishiga sababchi bo‘ladi. Komilning N.Ostromov xonadonida mehmondorchilikdagi taassurotlari aks etgan “Iki sho‘x” she’ri, Toshkentdagi madaniy o‘zgarishlar madhiga bag‘ishlangan “Dar bayoni ta’rifi, tavsifi Toshkand” qasidasi shoir, davlat arbobi sifatidagi orzularining badiiy aksidir. Toshkentda ko‘rganlarini, madaniy-ma’rifiy yangilanishlarni xonlik poytaxti Xivada ko‘rmoqni niyat qilgan siymoning fikr-qarashlaridir.

Ma’lumki, Komil Xorazmiy musiqa san’atidan xabardor bo‘lgan. Bir qancha musiqa asboblari chalgan. Uning Rossiyaga safari davomida pianino olib kelganligi, musiqani notalashtirishni o‘rganib qaytganligi ham o‘z davri uchun yangicha musiqa madaniyati va ilmini o‘rganishni maqsad qilganidan darak beradi. Komil musiqa sohasida ham ulkan yangilikka qo‘l urar ekan, qadim Xorazm maqomlarini qog‘ozga tushurish ishlarini boshladi. Bu bebaho ma’naviy boylikni asrab qolishning yagona yo‘li notalashtirish ekanligini anglab yetdi. Komil Xorazm musiqasini yozib olishni, ya’ni notaga ko‘chirishni boshladi. Buning uchun musiqa asboblardan tanburni tanladi. Shuning uchun u xalq orasida “Tanbur notasi” yoki “Tanbur chiziq-lari” nomi bilan ataldi, mashhurlikka erishdi. Uning bu boradagi ishlarini o‘g‘li Muhammad Rasul Mirzo davom ettirdi.

Komil Xorazmiy 1874-yilda Xivada ilk toshbosma yo‘lga qo‘yilganda ham Muhammad Rahimxon Feruzga yaqindan yordam berdi. Bu toshbosmada Alisher Navoiyning “Xamsa”, “Xazoyin –ul maoniy” asarlarini Komil chop ettiradi. Shunisi ahamiyatliki, Feruz va Komil xalqni ma’rifatli qilishda matbaaning ahamiyatini birinchilardan bo‘lib anglab yetgan edilar. Muhammad Rahimxon Feruz tashabbusi bilan Xivada 1884-yilda yangi usuldagi maktab, 1891-yilda rus-tuzem maktabi ochilgan edi. Aynan mana shu ta’lim maskanlarining ochilishida Feruz tashabbuskorligi asosiy o‘rin egallagan bo‘lsa, bu maktablarning ish boshlashida ijrochi, faoliyat yuritishida ko‘makchi, albatta, Komil Xorazmiy bo‘lgan.

Umuman, Xorazmdagi yangicha ma’rifatparvarlik harakati shakllanishi va rivojida Feruz bilan bir safda Komil Xorazmiy ham katta o‘rin egallagan. To‘g‘ri, ba’zan Feruz bilan kelishmay qolgan vaqtlari ham bo‘lgan. Biroq bu juz’iy

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

kelishmovchiliklar ham tezda bartaraf qilingan. Ular bir-birini ma’nan qo‘llab quvvatlagan.

Xorazmdagi ma’rifatchilik harakatining yana bir vakili Ahmad Tabibiydir (1869-1911). U shoir sifatida beshta devon tuzdi. Tabibiyning ma’rifatparvarlik ruhidagi she’rlari u qadar ko‘p emas. Buroq u erkin fikrli shaxs, kezi kelganda adabiyotshunos, yangilikka intiluvchi ijodkor sifatida ma’rifatparvarlik harakatida o‘z o‘rniga ega. Zero u Feruz saroyida saroy shoirlarining sarvari sifatida bejiz tanlanmagan. Bunga Tabibiyning favqulodda iste’dodi, mehnatkashligi sabab bo‘lgan deyish mumkin. U ikkita tazkira-majmua tuzish bilan ham nafaqat adabiy harakatchilikni, balki ma’rifatparvarlik harakatini qo‘llab quvvatladi. Tabibiyning “Majmuayi si shuaro payravi Feruzshohii”, “Muxammasoti si shuaro payravi Feruzshohiy” tazkiralari ham bu harakatning ko‘zgusi bo‘ldi.

Tabibiy favqulodda iqtidorining yana bir qirrasini uning til bilishida edi. Adabiyotshunos F. G‘anixo‘jayev yozadi: “Tabibiy Arabiston, Eron, Afg‘oniston va Hindistondan kelgan savdogarlar bilan ular tilida bemalol gaplashar, ulardan dori-darmonlar bilan birga turli kitoblar sotib olardi. O‘zi shu ishi bilan bir necha marta Mashhadga ham borib kelgan”¹.

Darhaqiqat, u tabobat bilan ham doimiy shug‘ullangan. Afsuski, xonlikning tibbiyot tizimi qoloqligidan juda kuyungan. Bu holat ham Ahmad Tabibiyning taraqqiyotni istagan shaxslardan biri ekanligini ko‘rsatadi.

Rus sharqshunosi A.N.Samoylovich Ahmad Tabibiy bilan 1909-yilda Xivada uchrashgan. 1638 betlik “Majmuat-ush shuaro” tazkirasini o‘qib chiqqan. Tabibiy bilan uchrashuvi va suhbat taassurotlarini A.N.Samoylovich shunday bayon qilgan: “Shoir, aytishiga qaraganda, erkin fikrli qarashlari sababli madrasadagi musulmon fanlarining to‘la kursini o‘zlashtirishdan voz kechgan. U Xivaga xivaliklarning mustamlakachilar – ruslar, nemislar bilan, tatarlar bilan bevosita aloqalari tufayli va undan tashqari yangi yo‘nalishdagi tatarcha, usmoncha kitoblar, jurnallar va gazetalar orqali kirib kelayotgan ilm mazasidan jindak tatigan. Hukmdorning topshirig‘i bilan dori-darmon uchun Mashhadga borib, o‘sha yerdan malaka oshirib qaytgan Ahmad Tabib musulmoncha usulda tabiblik qiladi. Va, chamasi, bu xivalik leybmedik o‘z “ilm”i ustidan pinhona kuladi. Kuzatishimizcha, “Majmua” muharririning o‘z jonajon O‘rta Osiyo adabiyotining benihoyat uzoq va mutlaqo yakrang asrini kechirayotgan hozirgi qiyofasiga ham munosabati shunday. Va yosh Xivaning adabiyot sohasida yakka-yolg‘iz bo‘lmagan bu vakili, garchi hozir afltunchasiga bo‘lsa-da, usmonli,

¹ G‘anixo‘jayev F.Tabibiy (hayoti va ijodi). Toshkent: “Fan”, 1978. 11-bet.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

turkiy-qozon, turkiy-kavkazcha eng yangi asarlarga, tarjima va originallarga, shubhasiz moyil”¹. Darhaqiqat, Ahmad Tabibiy erkin fikrli shaxs edi. U Yevropa ilm-fanidan xabardor bo‘la boshlagan, jadidona qarashlar aks-etgan kitob, jurnal, gazetalar bilan tanish bo‘lgan. Ular asosida tafakkurida burilishlar hosil bo‘layotgan edi. Shu bois ham u ba’zi she’rlarida, erkin tarjimalarida dostonlarida ilm-ma’rifat targ‘ibiga e’tibor berdi. Xuddi Komil Xorazmiy, Feruz kabi yangicha ma’rifatparvarlik harakatida qatnashayotgan edi. Afsuski, erta o‘lim uning yangicha qarashlari barham topishiga sabab bo‘ldi. Adabiyotshunos M.Yunusov bejiz: “Tabibiy o‘zining madaniy darajasi bilan boshqalardan ajralib turgan erkin fikrli taraqqiyparvar shoir bo‘lgan”², - demagan edi.

Xullas, Komil Xoprazmiy, Ahmad Tabibiylarni Xorazm adabiy muhitidagi yangicha ma’rifatparvarlik harakatining yetuk vakillari deyish o‘rinlidir. Ular o‘z ijodi bilan ilm-ma’rifat g‘oyalarini targ‘ib qildilar. Komil matbaachilik ishida jonbozlik ko‘rsatdi. Xonlikni ijtimoiy-iqtisodiy madaniy jihatdan taraqqiy qilishini istadi va bu borada harakatlar olib bordi. Yangi usuldagi maktablar ochish ishida Feruzga ko‘makchi bo‘ldi. Xorazm maqomlarini notaga ko‘chirish ishlarini boshlab berdi. Tabibiy esa o‘z davri ijodkorlari tafakkurini yangi bosqichga ko‘tarilishini istadi. Ular iqtidorini e’tirof etgan holda umumiy kamchiliklarini ko‘rsatib berdi. O‘z davri tabobatining Yevropa tibbiyotidan ortda qolayotganini anglab yetdi. Umuman, barcha sohalarda taraqqiyotga erishishni istadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘anixo‘jayev F.Tabibiy (hayoti va ijodi). Toshkent: “Fan”, 1978. 11-bet.
2. Ko‘chirma. B.Qosimovning “Izlay-izlay topganim...” (Toshkent: 1983) kitobidan (41-42-betlar) olib keltirilmoqda.

¹ Ko‘chirma. B.Qosimovning “Izlay-izlay topganim...” (Toshkent: 1983) kitobidan (41-42-betlar) olib keltirilmoqda.

² Yunusov M. Komil Xorazmiy. Toshkent, 1960. 37-38-betlar.